



“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati

PRESS-RELIZ

2023-yil 27-noyabr

Navoiy kon-metallurgiya kombinatining 65 yilligiga bag‘ishlangan matbuot anjumani to‘g‘risida

2023-yil 27-noyabr kuni “NKMK” AJning matbuot anjumanlarini o‘tkazish zalida Navoiy kon-metallurgiya kombinati tashkil topganligining 65 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan tadbirlar, amalga oshirilgan ishlar va erishilgan natijalar yuzasidan ommaviy axborot vositalari vakillari va jurnalistlar uchun matbuot anjumani o‘tkazildi.

Bugungi kunda Navoiy kon-metallurgiya kombinati nafaqat O‘zbekiston sanoatida, balki jahonning oltin ishlab chiqaruvchi yetakchi kompaniyalar qatorida o‘z o‘rni va salohiyatiga ega yirik korxonadir. Korxonada **40 dan ortiq** millatga mansub **qariyb 50 ming nafar** yuqori malakali ishchi, muhandis va mutaxassislar mehnat qilishmoqda.

Joriy yilda kombinat tashkil etilganiga 65 yil to‘ldi. Mamlakatimizda qimmatbaho metallarni qazib olish hamda ularni qayta ishlash rivoji hamda Navoiy, Uchquduq, Zarafshon, Nurobod shaharlari va Zafarobod qo‘rg‘onining barpo etilishi kombinat tashkil topishi bilan chambarchas bog‘liqdir.

Kombinatning 65 yilligi munosabati bilan 17-noyabr kuni Navoiy shahridagi “Farhod” madaniyat saroyida bayram tantanasi bo‘lib o‘tdi. Tantanada O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri Abdulla Aripov **O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Navoiy kon-metallurgiya kombinati jamoasiga yo‘llagan bayram tabrigini** o‘qib eshittirdi. Davlatimiz rahbarining **“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati tashkil etilganining 65 yilligi munosabati bilan ishlab chiqarish ilg‘orlaridan bir guruhini mukofotlash to‘g‘risida”gi Farmoniga** muvofiq korxonaning bir guruh ishchi-xodimlariga yuksak davlat mukofotlari topshirildi.

Navoiy, Uchquduq, Zarafshon, Nurobod shaharlari va Zarkent qo'rg'onida kombinat ishchi-xodimlari va ularning oila a'zolari uchun sanaga bag'ishlangan bayram tadbirlari hamda milliy estradamizning taniqli san'atkorlari ishtirokida konsertlar tashkil etildi.

16-17-noyabr kunlari Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universitetida kombinatning 65 yilligiga bag'ishlab **“Zarafshon vohasini kompleks innovatsion rivojlantirish: yutuqlar, muammolar va istiqbollar”** mavzusidagi **IV xalqaro anjuman** o'tkazildi. Mazkur anjumanda Rossiya, Germaniya, Turkiya, Polsha, Meksika, Chili, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston kabi 10 dan ziyod mamlakatlarning yetakchi universitetlari olimlari va xorijiy kompaniyalar vakillari ishtirok etishdi.

Navoiy kon-metallurgiya kombinatining 65 yilligiga bag'ishlab kombinat tarixi, mustaqillik yillarida, ayniqsa, keyingi yillarda erishilgan yutuqlar, ishga tushirilgan yangi korxonalar, konchilarning fidokorona mehnati, fan-ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi hamda madaniyat, sport va ijtimoiy sohalarda amalga oshirilayotgan ishlar haqida hikoya qiluvchi fotosuratlardan iborat **“NKMK: taraqqiyotning yangi bosqichida”** nomli **kitob-albom** nashr etildi. Shuningdek, kombinat rahbarlari, mutaxassislari, mehnat faxriylari, yoshlarning bugungi kunda korxonada ro'y berayotgan yangilanishlar haqidagi publitsistik maqolalari o'rin olgan **“Mehnatdan qadr topganlar”** nomli **kitob** chop etildi.

Kombinat tarixida davlatimiz mustaqilligigacha ikkita gidrometallurgiya zavodi barpo etilgan bo'lsa, mustaqillik yillarida oltita zavod, shundan, to'rttasi keyingi yetti yilda ishga tushirildi. Jumladan, yiliga **5 mln tonna** ma'danni qayta ishlaydigan **5-gidrometallurgiya zavodi**, yiliga **16 mln tonna** texnogen chiqindilarni qayta ishlaydigan **7-gidrometallurgiya zavodi**, 2-gidrometallurgiya zavodining yiliga **12 mln tonna** ma'danni qayta ishlaydigan **ikkinchi navbati** kabi zavodlar qatoriga joriy yilda foydalanishga topshirilgan **6-gidrometallurgiya zavodi** qo'shildi.

Jahonga mashhur **“Muruntov” koni** dunyodagi oltin qazib olinadigan eng yirik konlar ichida yetakchi sifatida e'tirof etilayotganligi kombinat jamoasi mehnatiga berilgan yuksak bahodir. Shuningdek, 2023-yilda **London oltin quymalari bozori assotsiatsiyasi** (LBMA – London Bullion Market Association) tomonidan NKMKning yuqori sifatli oltinni ishonchli yetkazib beruvchisi maqomi yana bir bor tasdiqlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlangan Navoiy kon-metallurgiya kombinatini rivojlantirish dasturiga muvofiq korxonada 2017-2023-yillarda **23 ta yirik investitsion loyiha** ishga tushirilib, **15 mingdan ortiq** yangi ish o‘rinlari yaratildi. Natijada kombinatda 2023-yilda 2016-yilga nisbatan oltin ishlab chiqarish **25 foiz**, kumush ishlab chiqarish **46 foizga** oshadi.

O‘zbekistonning 2030-yilgacha bo‘lgan Strategiyasida kon-metallurgiya tarmog‘i korxonalari oldiga katta vazifalar qo‘yilmoqda. Bu borada kombinat jamoasi ham o‘z oldiga katta marralarni qo‘ygan. Kelgusi yetti yilda kombinatda **20 dan ortiq** yirik investitsion loyihalarining amalga oshirilishi rejalashtirilgan.

Matbuot anjumanida NKMK tashkil topganligining 65 yilligi munosabati bilan ijodkorlar o‘rtasida o‘tkazilgan ijodiy tanlov g‘oliblari qimmatbaho sovg‘alar bilan taqdirlandi. Mazkur tanlovda kombinat ishchi-xodimlari va barcha ijodkorlar o‘zlarining Yangi O‘zbekistondagi o‘zgarishlar, xalqimiz shukronaligi, korxonada yutuqlari, zamonamiz qahramonlarini madh etuvchi publitsistik maqola, ocherk, esse, she‘rlar, ko‘rsatuv va eshittirishlar, fotosuratlar bilan qatnashdilar.

Tadbirda OAV vakillari va jurnalistlarning savollariga atroflicha javoblar berildi.

Murojaat uchun ma‘lumotlar:

“NKMK” AJ Matbuot xizmati, Ish telefonlari: **+99879 227-75-88, 227-74-73**

“NKMK” AJ rasmiy veb-sayti: www.ngmk.uz

“NKMK” AJning ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalari:

www.t.me/ngmkofficial

www.fb.com/nkmkofficial

www.instagram.com/nkmk.official

www.youtube.com/nkmkofficial

www.linkedin.com/company/jsc-nmmc/

www.twitter.com/jsc_nmmc

Ma‘lumot uchun:

“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati (“NKMK” AJ) jahonda oltin ishlab chiqaruvchi yirik kompaniyalar to‘rttaligiga kiradi. Kombinatta yer osti boyliklari zaxiralarini geologik qidirish, qazib olish va qayta ishlashdan tayyor mahsulot olishgacha bo‘lgan ishlab chiqarish jarayonlari to‘liq amalga oshiriladigan yirik sanoat klasteridir. Kombinatta zamonaviy kon-transport va texnologik uskunalar, ilg‘or texnologiyalar bilan jihozlantirilgan konlar, zavodlarga ega zamonaviy korxonadir. “NKMK” AJning “999,9” soflikdagi oltin quymalari jahonning qimmatbaho metallar bo‘yicha birjalarida O‘zbekistonning brendiga aylandi.